



ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA IDORAVIY NAZORATNI AMALGA OSHIRISH VA UNING USULLARI

Raxmonov Rasul

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi dotsenti
Ospanov Atabek Paxradin uli

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi kursanti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17685886>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-noyabr 2025 yil
Ma'qullandi: 15-noyabr 2025 yil
Nashr qilindi: 22-noyabr 2025 yil

KEYWORDS

ichki ishlar organlari, idoraviy nazorat, nazorat usullari, huquqiy asoslar, samaradorlik, korrupsiyaga qarshi kurash.

ABSTRACT

Maqola ichki ishlar organlarida idoraviy nazoratni amalga oshirishning ahamiyati va usullarini o'rganadi. Unda idoraviy nazoratning huquqiy asoslari, nazoratning asosiy vazifalari va uni amalga oshirishda qo'llaniladigan usullar tahlil qilinadi. Idoraviy nazoratning samaradorligini oshirish uchun takliflar va tavsiyalar keltiradi, shuningdek, nazorat jarayonida duch kelinadigan muammolar va ularni bartaraf etish yo'llarini ko'rib chiqadi. Maqola ichki ishlar organlari xodimlarining faoliyatini muvofiqlashtirish, qonuniy talablarga rioya qilish va korrupsiyaga qarshi kurashishda idoraviy nazoratning rolini ta'kidlaydi.

Ichki ishlar organlari davlatning huquq-tartibotini ta'minlash, fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilish, shuningdek, jamiyatda tinchlik va barqarorlikni saqlashda muhim rol o'ynaydi. So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida ichki ishlar organlarining faoliyatini yanada samarali va shaffof qilish maqsadida bir qator islohotlar amalga oshirildi. Ushbu islohotlar asosan nazorat mexanizmlarini takomillashtirish, korrupsiyaga qarshi kurashish va fuqarolarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan.

Nazorat – boshqaruv faoliyatining eng muhim turi. Bilamizki, har bir idoraviy tashkilot yoki organ idorasini formal tartibda boshqarish uchun boshqaruv qarorlarini ishlab chiqadi. Bularga asosan qaror, farmoyish, buyruq, nizomlar bolishi mumkin. Ushbu hujjatlar chiqarilgandan keyin uni bevosita nazorat qilish ijro bolinmalari bevosita rahbarlari amalga oshiradi Unga kora hujjat chiqarilgan organ boshqaruv subyekti, ijro qiluvchilar esa boshqaruv obyektini hisoblanadi. Uning ahamiyati subyektning boshqaruv obyektini bilan qaytma aloqa qilish vositasi ekanligida. Yani, ushbu hujjatlar amalga oshirilganligi boyicha yuridik ahamiyatga ega bolgan xisobot tuzilib, boshqaruv subyektiga oz muddatida korsatiladi. Bunday aloqaning mavjudligi tizim boshqarilishining majburiy shartlaridan biri hisoblanadi. Nazorat natijasida subyekt ishning haqiqiy ahvoli, qabul qilingan qarorlarning amalda bajarilish darajasi haqida axborotga ega bo'ladi. Binobarin, nazoratning yo'qligi boshqaruv ta'sirlarining maqsadli bo'lmasligiga olib keladi.

Nazorat kuzatish va tekshirish tizimidir. Bular natijasida obyektning faoliyat ko'rsatish jarayoni qabul qilingan boshqaruv qarorlariga mosligi, boshqacha aytganda – subyektning obyektga ta'sir ko'rsatishining natijalari aniqlanadi.

Nazorat faoliyatining zamonaviy amaliyoti shuni ko'rsatadiki, davlatning ijro etuvchi organi, xususan ichki ishlar organlarida idoraviy (ichki) nazoratning samarali tizimini tashkil etish nafaqat katta mustaqil ahamiyatga ega, balki ularni boshqarish tizimida ham muhim rol o'ynaydi.

Shuni ta'kidlash kerakki, "idoraviy nazorat" tushunchasining o'zi mutaxassislar o'rtasida munozarali mavzularidan bo'lib kelmoqda. Shu bilan birga, ilmiy tadqiqotlarda keltirilgan fikrlar doirasi idoraviy nazoratni davlat nazorati bilan aniqlashdan tortib, uni kengroq ma'noda davlat boshqaruv tizimining elementi sifatida talqin qilishgacha o'zgarib turadi. Monitoring - erishilgan natijalarni o'lchash va ularni kutilgan natijalar bilan bog'lash hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida O'zbekiston Respublikasi hududida qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni O'zbekiston Respublikasining Bosh prokurori va unga bo'ysunuvchi prokurorlar amalga oshirishi korsatib otilgan. «Prokuratura to'g'risida»gi qonunida Prokuratura organlari faoliyatining asosiy yo'nalishlari korsatilib unga kora, idoralar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, hokimlar va boshqa mansabdor shaxslar tomonidan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat qilish, fuqaroning huquq hamda erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan qonunlar ijrosi ustidan nazorat qilish, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida, vazirliklar va idoralarning harbiy tuzilmalarida qonunlarga rioya etilishi ustidan nazorat qilish, tezkor-qidiruv faoliyatni, tergovga qadar tekshiruvni, surishtiruvni, dastlabki tergovni amalga oshiradigan organlar tomonidan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat qilish hamda ularning jinoyatchilikka qarshi kurash borasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish, soliq intizomini mustahkamlashga, soliq, valyuta sohasidagi jinoyatlar va huquqbuzarliklarga qarshi kurashga, shuningdek davlatga yetkazilgan iqtisodiy zararni qoplashga qaratilgan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat qilish, ushlab turilganlarni, qamoqqa olinganlarni saqlash joylarida, jinoiy jazolarni va jinoyat-huquqiy ta'sirning boshqa choralarini ijro etish chog'ida qonunlarga rioya etilishi ustidan nazorat qilish kabi vakolatlari ayrimi Ichki ishlar organlarini nazorat qilishga bag'ishlangan bolib, bunnan korinib turibdiki IIO faoliyatini asosiy nazorat qiluvchi organ bu prokuratura organlari ekanligini korishimiz mumkin. bunnan tashqari, «Ichki ishlar organlari to'g'risida»gi qonuni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ichki ishlar organlari boshqaruv, nazorat va shaxsiy tarkib bilan ishlashning samarali tizimini joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida» 2018 yil 23 avgustdagi PQ-3919-son qarorida mamlakatimizda ichki ishlar organlari tizimini takomillashtirish, ularning quyi bo'g'inlarini aholiga yanada yaqinlashtirgan holda mustahkamlash, barcha darajadagi tuzilmalarning vazifalari va funksiyalarini aniq belgilash, zamonaviy xavf-xatarlarni hisobga olgan holda kuch va vositalarni oqilona taqsimlashga qaratilgan keng qamrovli ishlar amalga oshirildi.

Qarorga kora quyidagilar ichki ishlar organlarining kundalik faoliyatini tashkil etish tizimini yanada takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari deb hisoblansin:

birinchidan, vujudga kelayotgan real tezkor va kriminogen vaziyatni hisobga olgan holda ichki ishlar organlarining kuch va vositalarini muvofiqlashtirgan tarzda taqsimlash va boshqarishning samarali mexanizmini joriy etish;

ikkinchidan, jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida tahliliy ishlarni aniqlanayotgan amaliy muammolarni tizimli tahlil qilish va kriminogen vaziyatni prognozlashga yo'naltirish maqsadida tubdan qayta ko'rib

chiqish;

uchinchidan, lavozimlarni yuqori ma'naviy-axloqiy, ishchanlik va kasbiy sifatlarga ega nomzodlar bilan jamlashni nazarda tutgan holda, ichki ishlar organlariga xizmatga qabul qilishning sifat jihatdan yangi, soddalashtirilgan tartibini o'rnatish;

to'rtinchidan, shaxsiy tarkib bilan tarbiyaviy ishlarni olib borishning samarali tizimini joriy etish, shu jumladan ilmiy-psixologik uslublarni maqsadli qo'llash orqali ularning xizmat va oilaviy-maishiy muammolarini o'rganish;

beshinchidan, qonuniylikni so'zsiz ta'minlash, xizmat intizomiga qat'iy rioya qilish va xodimlar tomonidan sodir etilgan huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlashga qaratilgan vazifalarni bajarish yuzasidan ta'sirchan idoraviy nazoratni tashkil qilish;

oltinchidan, ish yuritish mexanizmi va hujjatlar aylanishi tartibini takomillashtirish, ichki ishlar organlari tizimining barcha bo'g'inlarida normativ-huquqiy hujjatlarning o'z vaqtida, bir xilda va to'liq bajarilishini ta'minlash belgilangan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T., «O'zbekiston», 2016. – 56 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. –T., «O'zbekiston», 2017.– 48 b.
3. O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi, 01.05.2023.
4. O'zbekiston Respublikasining "Ichki ishlar organlari to'g'risida". O'RQ-407-son.
5. Elektron hukumat to'g'risida. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 09.12.2015 yildagi O'RQ-395-son.
6. 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son.
7. Ijro intizomini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 12.01.1999 yildagi 12-son.
8. Yuldashev I. Ichki ishlar organlarida tuziladigan xizmat hujjatlari va ularning tasnifi // Наука и инновации в системе образования. – 2025. – Т. 4. – №. 2. – С. 110-115.
9. Ichki ishlar organlarining tashkiliy-shtab va yuridik ta'minlash faoliyati: Darslik / I. Ismailov, A.A. Sul'tonov, E.U. Azizov, I.R. Yuldashev va boshq; mas'ul muharrir I. Ismailov. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2024.